**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2021/2022 O‘QUV YILI 9-YIG‘ILISHI BAYONIDAN KO‘CHIRMA**

**2022-yil 7-may** **Buxoro shahri**
**Katta yig‘inlar zali** **soat 9:30**

| | |
|---|---|
| **Raislik qildi:** | O.X.Xamidov - kengashi raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d, prof. |
| **Ishtirok etganlar:** | N.G.Dilova - kengashi kotibi, p.f.f.d., dots. BuxDU kengashi a’zolari umumiy soni: 73 nafar Qatnashdi: 67 nafar kengash a’zosi va taklif qilinganlar (ro‘yxat asosida) |

**KUN TARTIBI**

**VI. Turli masalalar.**

**6.1.Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.**

**6.1.28.**“Xorijiy tillar” fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasi katta o`qituvchisi X.X.Umurova tomonidan Ikkinchi chet tili (ingliz tili) fanidan “English” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini Respublika OO‘MTV huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokomasiga tavsiya etish haqida

**ESHITILDI: R. Jumayev: (o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i)** –Xorijiy tillar fakulteti“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi katta o`qituvchisi X.X.Umurova tomonidan Ikkinchi chet tili (ingliz tili) fanidan “English” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini Respublika OO‘MTV huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokomasiga tavsiya etish uchun tayyorlanganligini ma’lum qildi. Ushbu o‘quv qo‘llanma taqrizchilari: Buxoro davlat tibbiyot instituti Ingliz tili kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) M.N.Davlatova, ichki taqrizni esa Buxoro davlat universiteti Tabiiy yo`nalishlarda chet tili kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), dotsent D.I.Xodjayeva tomonidan ijobiy baho berilganligini ta’kidladi.

Shuningdek, mazkur o‘quv qo‘llanma muhokamasi haqidagi Xorijiy tillar fakultetining (2022-yil 30-mart ) 8-sonli yig‘ilish qarori va universitet o‘quv-metodik kengashining 2022-yil 29-apreldagi 9-sonli yig‘ilish bayoni bilan tanishtirdi.

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i R.G‘.Jumayev ushbu o‘quv qo‘llanmadan O‘rta professional ta`limning mutaxasisliklari fan dasturidagi mavzularni to‘liq qamrab olingan O‘quv qo‘llanmani Oliy o‘quv yurtlarining 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (nemis, fransuz) hamda 5120200—Tarjima nazariyasi va amaliyoti (nemis, fransuz) bakalavriyat ta`lim yo‘nalishi talabalari keng foydalanishi mumkinligini va ayni vaqtda o‘quv qo‘llanmaga 50 nusxaga ehtiyoj borligini bildirdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Xorijiy tillar fakulteti“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi katta o`qituvchisi X.X.Umurova tomonidan Ikkinchi chet tili (ingliz tili) fanidan “English” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (nemis, fransuz) hamda 5120200—Tarjima nazariyasi va amaliyoti (nemis, fransuz) bakalavriyat ta`lim yo‘nalishi talabalari va mutaxassislar uchun zarurligi alohida ta’kidlansin.

Сканировано с CamS

2. Xorijiy tillar fakulteti“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi katta o`qituvchisi X.X.Umurova tomonidan Ikkinchi chet tili (ingliz tili) fanidan “English” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini yaratishda barcha talablarga rioya qilinganligini inobatga olib nashrga tavsiya etilsin.

3. Xorijiy tillar fakulteti“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi katta o`qituvchisi X.X.Umurova tomonidan Ikkinchi chet tili (ingliz tili) fanidan “English” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasini Respublika Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy Birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.

**BuxDU kengash raisi** **O.X. Xamidov**

**BuxDU kengash kotibasi** **N.G. Dilova**

Сканировано с CamS